

7-10-2019

THE IMPACT OF FAMILY CONFLICTS ON PSYCHOLOGY OF CHILDREN

Soxiba Yoqubjon qizi Abidova

Student of the group BT 48-16, in Primary education and sport education work specialty 5111700, faculty of pedagogy of NamSU

Yulduzkhon Shaamirova

Scientific tutor:c.p.s. senior teacher of "Methodology of primary education" department fakulty of pedagogy of NamSU.

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Abidova, Soxiba Yoqubjon qizi and Shaamirova, Yulduzkhon (2019) "THE IMPACT OF FAMILY CONFLICTS ON PSYCHOLOGY OF CHILDREN," *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 1 : Iss. 3 , Article 73.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss3/73>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact brownman91@mail.ru.

THE IMPACT OF FAMILY CONFLICTS ON PSYCHOLOGY OF CHILDREN

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

OILAVIY NIZOLARLARING BOLA PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI

Abidova Sohiba Yoqubjon qizi

Nam DU pedagogika fakulteti 511700- Boshlang'ich talim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi

BT 47-16-guruh talabasi

Shaamirova Yulduzxon Komilovna

Ilmiy rahbar: NamDU pedagogika fakulteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası
katta o'qituvchisi p.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila, mahalla, maktab kabi farzand tarbiyasiga mas'ul bo'lgan jamoatchilikning be'etiborligi natijasida qanday muammolar hosil bo'lishi va bunday loqaydlik oqibati qanday noxush hodisalar yuzaga keltirishi haqida to'xtalib o'tilgan. Ilk maktab yoshidagi o'quvchilarning kattalarning befarqligi natijasida yuzaga kelgan tushkunlikdan olib chiqish uchun qanday choralar ko'rish kerakligi haqida chuqur mulohaza yuritilgan.

Kalit so'z: notinchlik, pedagogik tehnologiya, tabaqalashtirish, huquqbuzarlik, profilaktika.

ВОЗДЕЙСТВИЕ СЕМЕЙНЫХ КОНФЛИКТОВ НА ПСИХОЛОГИЮ ДЕТЕЙ.

Абидова Сохиба Ёқубжон қизи

НамГУ факультет педагогике направления Начального образование и спортивно

воспитательной работы Студент BT 48-16 группы

Юлдузхон Шаамирова Кабилджановна

Научный руководитель: Старший преподаватель кафедры "Методика начального образования" факультета педагогике НамГУ п.ф.н.

Аннотация. В этой статье идёт глубокое обсуждение какие меры предосторожности должны проводится в каких ситуациях как: невнимательности общественности семьи, махали, школы в воспитании детей, молодёжи в результате чего возникают несчастные случаи. Безразличие взрослых в воспитании учеников начальных класса в которые приводит к депрессии.

Ключевые слова: беспокойство, педагогическая технология, нарушение прав, профилактика.

THE IMPACT OF FAMILY CONFLICTS ON PSYCHOLOGY OF CHILDREN

Abidova Soxiba Yoqubjon qizi

Student of the group BT 48-16, in Primary education and sport education work specialty

5111700, faculty of pedagogy of NamSU

Yulduzkhon Shaamirova

Scientific tutor: c.p.s. senior teacher of "Methodology of primary education" department
fakulty of pedagogy of NamSU.

Abstract. This article discusses the problems that arise as a result of the discretion of the public responsible for the upbringing of children such as the family, the mahalla, the school and the problems that may arise as a result of such an indifference and what disastrous consequences while arise. Deeply meditated on how to take first-year schoolchildren out of their anxiety as a result of the sensitivity of adults.

Key words: pedagogical technology, worry, differentiation, psycholactic

“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” .

A. Avloniy[6]

Farzand dunyoga kelishi haqidagi xabarni eshitishimiz bilan oilamizda hursandchilik ortadi. Qiz bo'lsa onalarimiz uni: “Zebo qilib tarbiyalayman, go'zal ahloqli kelin bo'ladi nasib qilsa”, -deb niyat qilishsa, o'g'il farzand uchun hammadan ham ko'proq otasi shod bo'lib, “Alpomishdek jasur bo'ladi, naslimning davomchisi bo'ladi va albatta el koriga yaraydigan mard qilib tarbiyalayman”,-deb orzu qilishadi. Shuning uchun ham tarbiyani avvalo oiladan farzand hali dunyoga kelmasdanoq boshlash zarur. Ona homiladorligi davrida o'zini qanchalik hotirjam tutsa, ko'proq kitoblar o'qish bilan shug'ullansa bolaning endigina shakillanayotgan ruhiyatiga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni bola hali tug'ulmago ona qornidaligi davridayoq mutolaaga, ilmga bo'lgan g'oyibona muhabbati shakillanadi.

Farzand dunyoga keldi. Endi uning tarbiyasi bilan faqat ona emas, balki oilaning har bir a'zosi shug'ullanmog'i darkor. Chunki bolaning ruhiyati juda nozik va ta'sirchan bo'lganligi uchun oila davrasida, farzandlar bor joyda har qanday muammolarni gapirib bo'lmaydi. Kattalarning o'zaro ovozlari ko'tarib gapirishi, yoki janjallar natijasida bola qo'rqishi, tortinchoq bo'lib qolishi, yoki kuchli stresga tushishi natijasida hattoki gapirish qobiliyatini butkul yo'qotishi ham mumkin.

Bunday muammolar yuzaga kelmasligi uchun nimalarga e'tibor berish kerakdegan savol bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanib qolmoqda.

Oilaviy janjallar, turli xil streslar, muammolar bolaning ruhiy holatini nechog'li salbiy ta'sir qilishini bir tasavvur qilib ko'ring-a. Kapalak qanotiday nozik qalb egalarining oilaviy ziddiyatlar natijasida o'ziga nisbatan ishonchi yo'qoladi, undagi ruhiy holat izdan chiqadi. Natijda janjallar vaqtida umuman borligini sezmasada asosiy zarba go'dak ruhiyarisiga tushadi. Bunday ruhiy holatlar ayniqsa kichik maktab yoshidagi bolalarda ko'proq kuzatiladi. Uydagi dilsiyohlklardan bezib borayotgan bolakayning o'qishida pasayish kuzatiladi, do'stlariga qo'shilmay qo'yadi, atrofdagi voqea - hodisalarga nisbatan befarq bo'lib qoladi.

Bunday vaziyatda qanday choralar ko'rish kerak? Maktabda ustozlari tomonidan, oilada ota - onasi tomonidan, mahalla ahli, do'stlari qo'yinchi uning atrofidagi bola tarbiyasiga mas'ul va befarq qarashga haqqi yo'q bo'lgan har bir insonlar qanday yo'l tutishlari lozim?

Avvalo mahallada qanday sabablarga ko'ra bunday notinch oilalar vujudga kelganini aniqlash kerak. Mahalla faollari dininy, ma'naviy – marifiy ishlar mas'ul

hodimlar, yarashtiruv komisiyasi a'zolarini doimo bunday notinch oilalarni nazorat qilishlari, ular uchun tushuntirish ishlari olib borishlari kerak.

“Hozirda Respublikamizda qariyb 9 mln.ga yaqin oilalar mavjud bo'lib shulardan 12 mingdan ortig'i notinch, 5 mingga yaqini noqobil oilani tashkil etadi. 50 mingga yaqin yoshlar esa IIV nazoratida turadi.

Joriy yilda O'zbekistondagi 9683 ta maktabda 5 mln.dan ortiq o'quvchilar tahsil olmoqdalar. Qarovsizlik, nazoratsizlik natijasida o'quvchilar orasida sodir etilgan jinoyatchilikning asosiy qismini o'g'irliklar tashkil etadi. Prezidentimiz tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatlarga binoan endilikda qaysi mahallada jinoyat sodir bo'lsa, shu hududga mas'ul profilktika inspektorining 30-50 foiz ish haqqidan ushlab qolinadi. Aksincha, mahallada tinchlik, tartib bo'lib, jinoyatlar sodir etilmasa, hodimning maoshiga rag'batlantiruvchi mablag' qo'shib boriladi”,- deya habar beradi O'zbekiston Respublikasi IIV Huquqbuzarliklar profilaktikasi Bosh boshqarmasi boshlig'i Aziz Ikromov[5].

Oilada hayotning ilk tamal toshi qo'yilar ekan ota – ona bu toshni avvalo ishonch, mehr - muhabbat asosida qo'yishi lozim. Aks holda bunday ziddiyatli holatlar nafaqat bolaning hotirjamlogiga putur yetkazadi, oila farzandlarini ham jamiyatda o'z o'rnini topa olmay uzilib qolishiga, sinfdoshlari, mahalladoshlari tomonidan e'tibordan chetta qoldirilgan bola yomon yo'llarga kirib ketishiga jinoyatlarga qo'l urishiga olib kelishi mumkin.

“Ota – onalarning bolalar tarbiyasiga mas'ulligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida alohida qayt etilgan. Unga ko'ra “Ota –onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar” [1]

“Yurtboshimizning odilona siyosatlari natijasida joriy yilning 10 oyi davomida yoshlar o'rtasida sodir etilgan jinoyatlar 14%ga voyaga, yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatchiliklar soni esa 17%ga kamaydi. Uyma –uy yurib aholi muammolarini o'rganish natijasida 22370 oilaning notinchligiga barham berildi, 11345 yosh oilaning ajrashib ketishi oldini olindi. Mahalla posbonlarining tezkor habarlari yordamida 4494 jinoyat fosh etildi.” [5]

Oila – jamiyatning bosh bo'g'ini ekan eng birinchi mas'uliyat ota – onaning bo'yniga tushadi, chunki ulargina Vatanimiz ertasi bo'lgan farzandlarni dunyoga keltirib so'ng tarbiyalashga mas'ul shaxs hissoblanishadi.

“Buyuk mutafakkir Mahmud Qoshg'ariy “Qutadg'u bilik” asarida bola tarbiyasi haqida to'xtalib, shunday deb yozadi: “Farzand qanchalik bilimli, aqilli, xushli bo'lsa, ota onaning yuzi shunchalik yorug' bo'ladi”. U bola tarbiyasida otaning mas'uliyatiga alohida e'tibor beradi. “Kimning o'g'li yoki qizi erka bo'lsa, - deb yozadi u, - shu kishining ko'zi mungli bo'lib yig'laydi. Ota bolaning kichikligidanbebosh qilib qo'ysa, bolada gunoh yo'q, barcha jafo otaning o'zida,”[3] - deydi Mahmud Qoshg'ariy. Agar ota – onalar farzandlarini vaqtida nazorat qilib, ularni o'qish va hunar bilan band qilishsa, kelajakda bunday o'g'il qizlar go'zal ahloqli bo'lishi haqida yana ko'plab mulohazalarni o'z asarida keltirib o'tadi.

“Hayot yo`llarida birinchi masala – maktab masalasidir”[6],- degan edi ya`na bir ma`rifatparvar adiblarimizdan Abdurauf Fitrat.

Darhaqiqat, maktabga ilk bor qadam qo`ygan bolakaylarning ko`zlaridagi jo`shqinlik, shiddat olovlarini so`nmasligi uchun barcha ustozlar birday mehnat qilishi lozim. Agarda o`quvchining oilaviy muammo va nizolardan bezib ruhiy tushkunlikka tushib borayotganini ustozlari sezsa, bolaning o`qishiga, o`zini tutishiga alohida e`tibor qaratishi lozim. Chunki bunday bolalarda tajanglik, qaysarlik, urushqoqlik kabi fe`l-atvor namoyon bo`la boshlaydi. Bunday xolatlarda o`qituvchi o`z o`quvchisining ruhiy holatidan kelib chiqqan holda uning muammolarini bilishiga harakat qilishi, iloji boricha bosiqlik, muloyimlik bilan uning ko`nngliga yo`l topa olishi kerak. Bola uchun oila a`zolaridan so`ng qadrdon bo`lgan yagona inson bu uning birinchi muallimidir.

O`qituvchi bolaning ruhiy holatidagi muammolarining yechimini topish uchun oilasi bilan doimo aloqada bo`lib, ota-onasiga oilaviy notinchlik nechog`lik salbiy ta`sir ko`rsatayotganini, uni o`qishdan ko`nngli sovib, darslarga befarqlik ortib borayotganini tushuntirish va bunday holat uzoq davom etadigan bo`lsa, o`qishda ham, jamiyatda ham tengdoshlaridan orqada qolib ketishini, hamda yana bir qator salbiy oqibatlarini ko`rsatib, buning oxiri yaxshilik bilan yakun topmasligini, agar farzand tinch va hotirjam oila davrasida bo`lsa, o`qishda katta o`zgarishlar bo`lishini va kelajakda Vatanimizning tarqqiyotiga hissa qo`shadigan yaxshi kadr bo`lib yetishishini atroflicha tushuntirishimiz lozim.

Zotan yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o`z chiqishlaridan birida: “Bizni hamisha o`ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob - axloqi, yurish-turishi, bir so`z bilan aytganda, dunyo qarashi bilan bog`liq. Bugun zamon shiddat bilan o`zgaryapti. Bu o`zgarishlarni hammadan xam ko`proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli, yoshlar o`z davrining talablari bilan uyg`un bo`lsin. Lekin ayni paytda o`zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug` zotlarning avlodimiz, degan da`vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o`zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan” [4],-deya ta`kidlagan edilar .

Bu vazifalar maktab, oila, mahalla, butun jamoatchilikka katta ma`suliyat yuklaydi. Mamlakatimizda ta`lim-tarbiya sohasining barcha bog`inlari-maktabgacha ta`lim, maktab, o`rta maxsus va oily ta`lim tizimini takomillashtirish, yangi muassalar bunyod etish va mavjudlarini qayta ta`mirlash bo`yicha olib borilayotgan ishlar yoshlar kamolotida o`z samarasini beradi.

Dunyoga kelgan har bir bolakay qandaydir bir iste`dod bilan tug`iladi. Faqat uni yuzaga chiqarish oilada, to`g`ri yo`lga yo`llab, rivojlantirib boorish esa ustozlarning qo`lida. Bolalarning bor imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun esa hozirda barcha shart – sharoitlar yetarli. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning II bosqich vazifalarida: “...o`quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta`limga o`tish to`liq amalga oshiriladi[2]”,-deb ta`kidlab o`tiladi. Mana shunday talablarda kelib chiqqan holda bugungi kun ustozlari o`qitishni tashkil etishda barcha zamonaviy

pedagogik texnologiyalarni ishga solgan holda tashkil etishlarini zamon talab etmoqda. Chunki bugungi kun bolasi ilmga, bilimga chanqoq. Huddiki hosildor yerga o`xshaydi. Unga ustozlari tomonidan qanchalik ko`p e`tabor berilsa, ko`p ishlov berilsa, shunchalik ko`p hosil beradi. Chunki daraxtni gullata bilishgina emas undan mo`l va mazzali hosil olishni bilish ham yuksak san`at va mashaqqatli mehnatni talab etadi.

Oilasi, mahallasi, maktabi, do`stlari tomonidan qo`llab quvvatlanayotgan bolaning tushkun vaziyatdan chiqishi osonlashadi. O`ziga bo`lgan ishonchi ortadi va oldiga katta-katta maqsadlar qo`ya boshlaydi. Ulkan orzulari tomon qo`rqmay qadam tashlaydi. Ko`zlagan manzili tomon intilar ekan, uni endi yonida qo`llovchi ajralmas maktab, oila, mahalla nomli doimo kuch-quvvat va madad beruvchi baland cho`qqilarni zabt etishga undovchi mehrga to`la maskanlari bor.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 21- bet. Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. "Kadrlar tayyorlash milliy dasduri" 9-bet 2007- yil.
3. X. Ibragimova, SH. Abdullayeva Pedagogika nazariyasi. Toshkent. 2008 yil
4. www.president.uz
5. www.gazeta.uz
6. www.mana.uz